



**MISR ARAB SHEVASIDAGI FRANSUZCHA O‘ZLASHMALAR:  
TARIXIY-MADANIY OMILLAR VA LINGVISTIK XUSUSIYATLAR**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti*

*Arabshunoslik oliy maktabi dotsenti*

*f.f.d. H.A. Yuldasheva*

*70230101 Lingvistika (arab tili)*

*yo'nalishi I bosqich magistranti*

*Sidikova Manzurabonu Akbarovna*

[bonusydyk@gmail.com](mailto:bonusydyk@gmail.com)

**+998774229171**

**Annotatsiya:** “Misr arab shevasidagi fransuzcha o‘zlashmalar: tarixiy-madaniy omillar va lingvistik xususiyatlar” nomli maqola Misr shevasiga fransuz tilidan kirib kelgan so‘zlar va ularning lingvistik xususiyatlarini, o‘zlashish yo‘llari, sabab va oqibatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Misr arab tili tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar tufayli ko‘plab boshqa tillardan, jumladan fransuz tilidan o‘zlashgan so‘zlarga ega. Fransuzcha so‘zlarning Misr shevasiga kirib kelishining asosiy sabablari XIX–XX asrlarda Misr va Fransiya o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar, shuningdek ta’lim, harbiy soha, moda va san’atdagi fransuz ta’siri bilan izohlanadi. Maqolada bu so‘zlarning fonetik, morfologik va semantik o‘zgarishlari, ularning arabcha muqobillari bilan taqqoslanishi, hamda o‘zlashish jarayonining bosqichlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, fransuzcha so‘zlarning Misr shevasida qanday funktsional o‘zgarishlarga uchraganligi va ular hozirgi Misr arab tilida qanday ishlatilishi haqida ham fikr yuritiladi. Ushbu tadqiqot lingvistika va tilshunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.



**Kalit so‘zlar:** Misr shevasi, fransuz tili, o‘zlashma so‘zlar, lingvistik tahlil, fonetik o‘zgarish, semantik o‘zgarish, leksik tizim, madaniy ta’sir, ijtimoiy omillar, leksik integratsiya.

**Аннотация:** Статья под названием «Французские заимствования в египетском арабском диалекте: историко-культурные факторы и лингвистические особенности» посвящена изучению слов французского происхождения, вошедших в египетский диалект, а также их лингвистических характеристик, путей заимствования, причин и последствий. Египетский арабский язык в силу исторических, культурных и социальных факторов содержит множество заимствований из различных языков, в том числе из французского. Основными причинами проникновения французских слов в египетский диалект стали политические, экономические и культурные связи между Египтом и Францией в XIX–XX веках, а также французское влияние в образовании, военной сфере, моде и искусстве. В статье анализируются фонетические, морфологические и семантические изменения этих слов, проводится их сравнение с арабскими эквивалентами, а также рассматриваются этапы процесса заимствования. Кроме того, уделяется внимание функциональным изменениям французских слов в египетском диалекте и особенностям их употребления в современном египетском арабском языке. Данное исследование представляет собой важный источник для научных изысканий в области лингвистики и языкознания.

**Ключевые слова:** египетский диалект, французский язык, заимствованные слова, лингвистический анализ, фонетические изменения, семантические изменения, лексическая система, культурное влияние, социальные факторы, лексическая интеграция.

**Abstract:** The article titled “French Loanwords in the Egyptian Arabic Dialect: Historical-Cultural Factors and Linguistic Features” is devoted to the study of



French-origin words that entered the Egyptian dialect, as well as their linguistic characteristics, channels of borrowing, causes, and consequences. Due to historical, cultural, and social factors, Egyptian Arabic contains numerous borrowings from various languages, including French. The main reasons for the influx of French words into the Egyptian dialect are the political, economic, and cultural relations between Egypt and France in the 19th–20th centuries, as well as French influence in education, the military sphere, fashion, and the arts. The article analyzes the phonetic, morphological, and semantic changes of these words, compares them with their Arabic equivalents, and examines the stages of the borrowing process. In addition, it discusses the functional changes of French words in the Egyptian dialect and their usage in contemporary Egyptian Arabic. This study serves as an important source for research in the fields of linguistics and language studies.

**Keywords:** Egyptian dialect, French language, loanwords, linguistic analysis, phonetic change, semantic change, lexical system, cultural influence, social factors, lexical integration.

Misr arab shevasida fransuz tilidan o‘zlashgan so‘zlar til tarixining muhim qatlamlaridan birini tashkil etadi. XIX–XX asrlardagi fransuz madaniy ta’siri arab dunyosida sezilarli darajada bo‘lgan. Bu o‘zlashmalar ko‘pincha shahar madaniyatida uchraydi. Napoleonning 1798-yildagi Misr bosqini faqat harbiy maqsadlarni emas, balki ilm-fan, matbaa va madaniy ta’sirni ham o‘z ichiga olgan. Institut d’Égypte (Misr instituti) tashkil etilishi fransuz ilmiy atamalarini Misr arabchasiga kirib kelishiga asos bo‘ldi, bu esa keyinchalik zamonaviy milliy fikr shakllanishiga yordam berdi.<sup>1</sup> Bundan keyinroq, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Misr jamiyatida fransuz madaniyati, adabiyoti va san’ati yuqori baholandi. Elita doiralarda fransuz tili bilish obro‘li hisoblanardi. Savdo-sotiq, moda, oshxona va

---

<sup>1</sup> Karabekir B. The French Expedition to Egypt and its Impact on the Nahda. // The Journal of Islamic Studies. – 2012. – No 2. – P. 15-30.



kundalik hayotga oid ko‘plab so‘zlar ham fransuz tilidan o‘zlashgan. Misol uchun, "pantolon" (*shim*), "robe" (*roba*), "salon" (*salon*) kabi so‘zlar kundalik nutqqa singib ketgan.<sup>2</sup> Ularning ayrimlari hozirgi kungacha fransuzcha talaffuz va shaklni saqlagan holda faol qo‘llanilmoqda. Sami Hamdi tomonidan yozilgan “Arab tilida leksik o‘zlashish va orfografiyaning roli” nomli maqolada muallif quyidagi fikrni ta’kidlaydi: "O‘zlashgan so‘zlarning moslashuvi (loanword adaptation) — bu chet tillardan kirib kelgan leksik birliklarning fonologik va morfologik jihatdan mahalliy til tizimiga moslashtirilishi jarayonidir.”<sup>3</sup> Ya’ni, boshqa tillardan olingan so‘zlar arab tiliga kirganda, ularning fonologiyasi va morfologiyasi arab tilining qoidalariga moslashtiriladi. Masalan:

- fransuzcha *bureau* → بَيْرُو [bīrū] *byuro*
- fransuzcha *étiquette* → اِتِيكِيْت [itīkīt] *odob-axloq qoidalari*

Quyida Misr arab shevasida uchraydigan fransuzcha o‘zlashmalar to‘liq ro‘yxati, ularning asl fransuzcha shakllari, fonetik moslashuvi va semantik xususiyatlari keltiriladi:

جمصة [gamasa] – **asl shakli** *j’aime ça* – fransuzcha *men buni yaxshi ko‘raman* iborasidan. Gamasa Misrning Dakahliya viloyatida joylashgan dengiz bo‘yidagi shahar bo‘lib, Mansura shahrining davomidadir. U o‘zining toza suvi, mayin qumi, past namlik darajasi va baland yod miqdori bilan o‘ziga xos va Qohiraga eng yaqin va arzon dam olish plyaj hisoblanadi. Uning nomi arab tilida hech qanday ma’no anglatmaydi. Balki, fransuzlar bosqinida (1798–1801) Napoleon Bonapart bu hududga kelib, uning manzarasidan hayratlangan va fransuz tilida “J’aime ça” (“*Men buni yaxshi ko‘raman/menga yoqdi*”) degan.

<sup>2</sup> Cole, Juan. *Napoleon's Egypt: Invading the Middle East*. – New York: Palgrave Macmillan, 2007. – P. 45–53.

<sup>3</sup> Hamdi, S. (2017). *Lexical Borrowing in Arabic and the Role of Orthography*. International Journal of Language and Linguistics, 4(1), 17–18.



Vaqt o‘tib, bu ikki so‘z bir so‘zga, “J” esa “G” ga aylanib, “Gamasa” shaklini olgan.<sup>4</sup>

وبور [vabūr] – **asl shakli** *vapeur* – fransuzcha *bug‘* so‘zidan kirgan. Klassik arabchada *bug‘* degan tushuncha uchun بخار [buxōr] so‘zi bo‘lishiga qaramay, Misr shevasida وبور [vabūr] so‘zi ishlatiladi.

تلتوار [tiltuār] – **asl shakli** *trottoir* – fransuzcha *piyodalar yo‘li* so‘zidan. Shahar kontekstida trotuar (yo‘lakcha)ni ifodalash uchun ishlatiladi, klassik arabcha muqobili رصيف [rosīf] so‘zi kamroq qo‘llanadi.

الأجا [alāga] – **asl shakli** *élégant* – fransuzcha *nafis, zarin* so‘zidan. Kiyim yoki odamning nafis, estetik ko‘rinishini ifodalashda ishlatiladi.

فیش [fīsh] – **asl shakli** *fiche* – fransuzcha *fayl / karta* so‘zidan. Ma’lumot yoki identifikatsiya kartochkasi ma’nosida ishlatiladi, ayniqsa, rasmiy idoralarda keng tarqalgan shakl.

باستوريزاسيون [basturizasyun] – **asl shakli** *pasteurization* so‘zi fransuzcha sutni isitish orqali mikrobologik tozalash ma’nosida sanoat va laboratoriya kontekstida ishlatiladi.

بلاج [blāg] – **asl shakli** *plage* fransuzcha *sohil, plyaj* so‘zidan. Dengiz yoki ko‘l sohillari uchun ishlatiladi, xususan, turistik joylardagi e‘lonlarda uchraydi.

شيز لونج [shīz lūng] – **asl shakli** *chaise longue* fransuzcha *cho‘zilgan skameyka / dengiz kreslosi* so‘zidan. Bog‘ yoki hovlida ishlatiluvchi dam olish, quyoshda chiniqish uchun mo‘ljallangan uzun stul turi uchun Misr lahjasida qo‘llanadi.

<sup>4</sup> Fascinating Stories Behind The Names Of Some Iconic Egyptian Streets & Districts. Egyptfwd.org, 30 Jan 2019.



بون بون [bunbun] – **asl shakli** *bonbon* fransuzcha *konfet* soʻzidan. Kichik hajmdagi shirinlik, umuman, konfetlar uchun ishlatiladi.

كراڤات [krāfāt] – **asl shakli** *cravate* fransuzcha *galstuk* soʻzidan. Asosan rasmiy turdagi kiyimlarda boʻyinbogʻni anglatishda ishlatiladi.

كويڤور [kavifūr] – **asl shakli** *coiffeur* fransuzcha *soch ustasi* soʻzidan kirgan. Misr shevasida sartarosh yoki ayollar soch ustasi uchun ishlatiladi, zamonaviy salonlarda uchraydi.

كيلو بامية [kīlu bāmiya] – asli fransuzcha *qui est le premier* – *kim birinchi* iborasidan olingan. "كيلو بامية" [kīlu bamiya] deb nomlangan maroqli oʻyin fransuz oʻyinlaridan ilhomlangan tarzda yetib kirib kelgan. Bu oʻyin bolalarning aylana boʻylab toʻplanib, qoʻl ushlashi va birgalikda "kilu bamia"ni aytishi bilan boshlanadi. Bu ibora fransuzcha "Qui est le premier" iborasidan kelib chiqqan boʻlib, "Kim birinchi?" degan maʼnoni bildiradi. Bolalarning bu oʻyin turi nafaqat Fransiyadan Misrga, balki Misr orqali Yamanga ham yetib borgan.

روجاجو [rūgagu] – asli fransuzcha *rouge à joues* – *yanak pushti*, yaʼni yuz yonoqlarini qizartirish uchun boʻyoq, *rumyana* maʼnosida makiyaj mahsulotlaridan birining nomi boʻlgani uchun, asosan ayollar nutqida koʻproq uchraydi. Shuningdek, bu soʻzdan روج [rūg] qismi fransuzcha *rouge* – **qizil soʻzini ham koʻpchilik arab lahjalari qatori Misr lahjasida ham lab boʻyogʻi sifatida ishlatishadi.**

فيتيس [fītis] – asli fransuzcha *vitesse* – *tezlik* soʻzidan. Masalan, mashina yoki asbob-uskuna tezligi, tezlik sensori uchun qoʻllanadi.

Bundan tashqari, yuqorida tahlil qilingan kundalik nutq namunalarida fransuz tilidan kirib kelgan boshqa oʻzlashmalar ham uchraydi. Holes taʼkidlaganidek, bu oʻzlashmalar faqatgina tilga yangi soʻzlar olib kirish bilan cheklanmay, balki Misr



jamiyatining G'arb bilan tarixiy munosabatlari va madaniy o'zaro ta'sirining lingvistik ifodasi sifatida ham ahamiyatlidir. Ushbu leksik birliklar fonetik, morfologik va semantik jihatdan mahalliylashib, hozirgi kungacha faol qo'llanib kelmoqda, bu esa Misr arab shevasining dinamik rivojlanish jarayonini yaqqol namoyon etadi.<sup>5</sup> Ushbu so'zlarning sezilarli qismi avtomobil va transport sohasi bilan bog'liq leksik birliklardir. Bunga sabab sifatida XX asrning birinchi yarmida Misrda avtomobil sanoatining rivojlanishi va shu jarayonda fransuz texnik terminologiyasining faol qo'llanishi ko'rsatiladi. Misr arab shevasida bunday so'zlar ko'pincha fransuzcha talaffuzga yaqin shaklda ishlatiladi hamda kundalik nutqda keng qo'llanadi. Masalan:

ديركسيون [dīrksyūn] – *direction* – *rul tizimi*

كلاكس [klāks] – *klaxon* – *avtomobil signali*

دبرياج [dibryāg] – *débrayage* – *debriyaj*

بربريز [barabarīz] – *pare-brise* – *avtomobil old oynasi*

تابلوه [tāblū] – *tableau* – *boshqaruv paneli*

مارشدير [mārshedīr] – *marche arrière* – *orqaga yurish*

رادياتير [rādiyātir] – *radiateur* – *radiator*

موتور [mūtūr] – *moteur* – *dvigatel*

فرملة [farmala] – *frein* – *tормoz*

فولان [fūlān] – *volant* – *rul*

<sup>5</sup> Holes, C. Modern Arabic: Structures, Functions, and Varieties. – Washington, D.C.: Georgetown University Press, 2004. – P. 420.



بوجيه [būgiyh] – *bougie* – *dvigatel uchun sham/svetodiod*

موبينة [mūbīna] – *bobine* – *elektr g'altagi*

مارش [mārsh] – *marche (marche arrière)* – *starter / avtomobil uchun uzatmalar*

دينامو [dināmu] – *dynamo* – *generator*

مترو [mitrū] – *métro* – *metro*

شاليه [shāliyh] – *chalet* – *dacha yoki yaylov uyi*

كنبة [kanaba] – *canapé* – *divan*

جرنال [gurnāl] – *journal* – *gazeta*

أباجورة [abāgūro] – *abat-jour* – *stol lampasi*

برتمان [bartamān] – *porte à main* – *qo'l sumkasi / portfel*

أفوكاتو [afūkāt] – *avocat* – *advokat*

إتيكيت [itīkīt] – *étiquette* – *odob-axloq qoidalari*

مرسي [mersī] – *merci* – *rahmat*

جارسون [gārsūn] – *garçon* – *ofitsiant*

بيتيفور [bitifūr] – *petit four* – *mayda pishiriq / desert*

ماكياج [makiyāg] – *maquillage* – *makiyaj*

مادام [madam] – *madame* – *turmushga chiqqan ayolga hurmat yuzasidan murojaat qilish*





Yuqorida keltirilgan izohlardagi o'zlashmalar Misr arabchasida **kunlik suhbatlarda, xususan**, texnik, kosmetika, ijtimoiy hurmat shakllari, mebel elementlari kabi kontekstlarda faol ishlatiladi.

**Xulosa qilib aytganda**, Misr shevasiga fransuz tilidan kirib kelgan so'zlar bu ikki xalq o'rtasidagi tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar natijasidir. Ushbu o'zlashmalar asosan ta'lim, harbiy soha, moda, san'at, boshqaruv va kundalik hayot bilan bog'liq bo'lib, ularning ba'zilari arab adabiy tilida mavjud bo'lsa-da, misrliklar ularni ko'pincha fransuzcha talaffuz va shaklda ishlatishda davom etmoqda. Bu hodisa shuni ko'rsatadiki, til doimiy o'zgarish va rivojlanish jarayonida bo'lib, turli madaniyatlar bilan o'zaro munosabatlar natijasida boyib boradi. Fransuzcha o'zlashma so'zlarning keng qo'llanilishi Misr jamiyatining ochiqligi, madaniy xilma-xilligi va tarixiy merosiga bo'lgan hurmatini yana bir bor tasdiqlaydi. Bugungi globalizatsiya davrida ham Misr shevasiga yangi xalqaro so'zlar kirib kelmoqda va bu tilning kelajakda yanada boyib borishini anglatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karabekir B. The French Expedition to Egypt and its Impact on the Nahda. // The Journal of Islamic Studies. – 2012. – No 2.
2. Cole, Juan. *Napoleon's Egypt: Invading the Middle East*. – New York: Palgrave Macmillan, 2007.
3. Hamdi, S. (2017). *Lexical Borrowing in Arabic and the Role of Orthography*. International Journal of Language and Linguistics, 4(1).
4. Holes, C. *Modern Arabic: Structures, Functions, and Varieties*. – Washington, D.C.: Georgetown University Press, 2004.
5. *Fascinating Stories Behind The Names Of Some Iconic Egyptian Streets & Districts*. Egyptfwd.org, 30 Jan 2019.



6. Reynolds, E. J. *Stress and Syllable Repair in Egyptian Arabic Loanwords from English and French*. Indiana University, 2014.
7. Moshref, O. A. *Grammatical Gender Assignment of English and French Loan Words in Egyptian Arabic*. Arabic Linguistics Symposium, University of Texas at Austin, April 2010.
8. Bueasa, N. *Phonological Adaptation of Loanword into Egyptian Arabic*. Journal of Faculty of Humanities and Social Sciences, 2015.